

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJAT LOYIHASINING  
QONUNCHILIKKA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**1. Loyiha turi:** Shartnoma

**2. Loyiyaning nomi**

Angren shahar Tibbiyot birlashmasi va "Toshkent viloyati Dori-Darmon" AJ o'rtasida tuzilgan mahsulot yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma. Shartnoma summasi 754860 (Yetti yuz ellik to'rt ming sakkiz yuz oltmish) so'mni tashkil qiladi.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot**

Angren shahar Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 21-yanvar kuni ishlab chiqilgan va yuridik markazga taqdim qilingan.

**4. Loyiha bo'yicha yuridik markaz xulosasi**

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 437-456-moddalari, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 670-I-son qonuni, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-sonli qaroriga muvofiq tayyorlangan.

Mazkur shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti:**



**Sh. Niyazova**

*2022-yil 21-yanvar*